

---

## RASMIY MUNOSABAT



Ijtimoiy tarmoqlarda Qo'shtepa tumanidagi Xalq bankidagi xolat haqida video murojaat e'lon qilindi.

Chindan ham Qo'shtepa tumanidagi Xalk bankida joriy yil 6 noyabr kuni IABS dasturida texnik uzilish yuzaga kelgan. Mijozlarga dasturdagi texnik nosozlik tushuntirilib, dasturni ishlashi kutilgan. Bu haqda boshqaruv tomonidan ogohlantirilgan va mijozlarga yetkazilgan.

Murojaatda tilga olingan bank binosining sotilishi mutlaqo asossiz bo'lib, bank binosi xech kimga sotilmagan. Aksincha, bank o'z faoliyatini davom ettirib mijozlarga xizmat ko'rsatmoqda. O'sha kuni dastur ishlashi bilan navbatlar tez orada bartaraf bo'lgan va mijozlarga to'liq xizmat ko'rsatilgan. 6 noyabr kuni yuzaga kelgan texnik nosozlik uchun bank ma'muriyati mijozlardan yana bir bora uzur so'rab, kelgusida bunday xolatlarni takrorlanmasligini oldini olinishini ma'lum qiladi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2023-11-06 20:41:17